# FARG‘ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## FARG‘ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023-YIL YANVAR-AVGUST (DASTLABKI MA’LUMOT)



**Tel.: 73-241-96-28**
**www.farstat.uz**

# Farg‘ona viloyati
# sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 19 931,0 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,5 % ni tashkil etdi.









Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining uch yillik ko‘rsatkichlari o‘sish tartibida, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan yilga o‘sayotganligini ko‘rsatadi.

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg‘ona viloyatida 2023-yil yanvar-avgust oylariga aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4988,3 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o‘sib borayotganini ko‘rsatadi.









Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi va aholi talablariga mosligini baholash uchun ham biz sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga to‘g‘ri kelish ko‘rsatkichlarini hisoblab borishimiz kerak.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan sanoat mahsulotlari ko‘rsatkichlari shuni bildiradiki, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlariga nisbatan aholining ehtiyoji o‘sganligi hamda aholi sonining ham o‘sib borayotganligini bildiradi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, **18 549,1** mlrd.so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **93,1 %** ni, tashkil etdi.






## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

## B seksiya

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **103,3** mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %** ini tashkil etdi.



yanvar-avgust

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 51,8 *mlrd. so‘m* |
| **2023-y.** | 103,3 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *%da***

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 19,7% |
| **2023-y.** | 194,6% |

## C seksiya

## Ishlab chiqaradigan sanoat

2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **18 549,1** mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining **93,1 %** ini tashkil etdi.

yanvar-avgust

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 17 256,9 *mlrd. so‘m* |
| **2023-y.** | 18 549,1 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *%da***

| | |
|---|---|
| **2022-y.** | 105,1% |
| **2023-y.** | 102,6% |



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




2023-yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 225,6 ming tonna avtomobil benzini (2022-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 69,0% ga ko‘paygan), 294,9 ming tonna dizel yoqilg‘isi (46,1 % ko‘paygan), 70,1 ming tonna kalava ip mahsulotlari (16,4%ga kamaygan) hamda 19988,1ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (43,1%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022-yil yanvar-avgust | 2023-yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Avtomobil benzini, ming t | 133,5 | 225,6 | 92,1 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 133,9 | 153,3 | 19,4 |
| Paxta chigiti, ming t. | 45,4 | 66,8 | 21,4 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming t. | 11,2 | 5,0 | -6,2 |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 8,6 % (2022-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 118,4%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 37,0% (2022-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 99,1 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,3% (2022-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 99,2%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,5 % (2022-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 %ni (2022-yilning yanvar-avgust oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 17,2 % (16,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,2% (20,3%) va quyi texnologiyalisi – 52,4% (56,3%)ni tashkil etdi.



## Metallurgiya sanoati






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati 140,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,8%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 187,8 % ni tashkil etgan.

2022-yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati 64,9 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,4%ni etdi o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 41,5 % ga kamaydi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,6 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 16,6 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 2 518,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 114,3 % ni tashkil etgan.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,8 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 2660,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,6 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 29,8 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 52,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-avgust oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi ulushi 1,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 66,8 % ni tashkil etgan.






## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-avgust oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 7,9 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 5 574,9 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 35,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 119,8 % ni tashkil etgan.






## Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,1 %, fizik hajm indeksi 134,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 949,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 89,5 % ni tashkil etgan.





## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,6 % ni, fizik hajm indeksi 101,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2336,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,7 % ni fizik hajm indeksi esa 128,6 % ni tashkil etgan.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-avgsut oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,2 % ni, fizik hajm indeksi 79,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 968,7 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2022-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni fizik hajm indeksi esa 42,3 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish






2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 136,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 529,8 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni fizik hajm indeksi esa 92,2 % ni tashkil etgan.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 188,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 188,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni fizik hajm indeksi esa 87,3 % ni tashkil etgan.




## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 115,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 463,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni fizik hajm indeksi esa 72,3 % ni tashkil etgan.




## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 %, fizik hajm indeksi 21,4 % ga o‘sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 595,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar- avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni fizik hajm indeksi esa 189,9 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2023-yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 138,2 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ini) tashkil etadi.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 57,4 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.

**Yanvar-avgust**

| | D mahsulotlar hajmi | FHI, %da |
|---|---|---|
| *2023-yil* | 1138,2 mlrd.so‘m | 111,4% |
| *2022-yil* | 1080,8 mlrd.so‘m | 123,3% |



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-avgust | 2023- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | **256,9** | **234,1** | **-22,8** |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | **879,0** | **1083,5** | **204,5** |

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 149,2 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.

*2023-yil*

*2022-yil*

**Yanvar-avgust**

***FHI, %da***

**140,4 mlrd.so‘m**

**96,4%**




**149,2 mlrd.so‘m**

**134,0 %**

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-avgust | 2023- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m* | **14,2** | **11,7** | **-2,5** |
| Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m* | **20,0** | **13,5** | **-6,5** |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 2,5 mlrd. so‘m yoki 18,0 %ga kamayganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 6,5 mlrd. so‘m va 26,9 %ga kamaygan.

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 290,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 101,2%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 21,5%ni tashkil etdi.

*Jami iste’mol mahsulotlaridagi ulushi, %da*

| | **Oziq-ovqat mahsulotlari** | **Nooziq-ovqat mahsulotlari** |
|---|---|---|
| **2022-yil yanvar-avgust** | 37,1% | 62,9% |
| **2023-yil yanvar-avgust** | 48,6% | 51,4% |

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 41,3 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

| | |
|---|---|
| **2022-yil** | **70,3%** |
| **2023-yil** | **87,6%** |



# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1073,8 ming so‘m bo‘lgani holda 2022-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 99,1 %ni tashkil etdi.

## Farg‘ona viloyati

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2022-yil | 105,1% | 1541,3 | ming so‘m |

*2022-yil yanvar-avgust*

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2023-yil | 99,1% | 1073,8 | ming so‘m |

*2023-yil yanvar-avgust*



# Viloyat bo‘yicha oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami oziq-ovqat mahsulotlari 2085,3 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, jami nooziq-ovqat mahsulotlari hajmi esa 2205,1 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

***Oziq-ovqat mahsulotlari***
***Yanvar-avgust***

*Hajmi, mlrd.so‘m*

**2236,3** **2022-yil**

**2085,3** **2023-yil**

*O‘sish sur’ati %da*

**106,9%** **2022-yil**

**96,1%** **2023-yil**



***Nooziq-ovqat mahsulotlari***
***Yanvar-avgust***

*Hajmi, mlrd.so‘m*

**3795,9** **2022-yil**

**2205,1** **2023-yil**

*O‘sish sur’ati %da*

**107,9%** **2022-yil**

**106,5%** **2023-yil**



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi
## 2023-yilning yanvar-avgust oylarida

*jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi (foiz)da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 141,1 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 45,9 %ni tashkil etdi.

*2023-yil 1-sentabr holatiga*

## Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida **12555** ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan **7813** tasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar**

**2022-yil** — **1254 dona**

**2023-yil** — **1232 dona**



**Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar**

**2022-yil** — **10591 dona**

**2023-yil** — **7813 dona**